



O'zbekiston Xalqaro Islom
Akademiyasi Xalqaro
munosabatlar fakulteti 2-kurs
talabalarining O'zbekistonning
eng yangi tarixi fanidan
tayyorlagan taqdimoti

Mavzu: O'zbekistonda olib borilgan iqtisodiy islohotlar

Reja:

- 1. Tadrijiy yo'l - bozor munosabatlariga o'tish bosqichlari**
- 2. Ko'p tarmoqli iqtisodiyotning shakllantirish bo'yicha olib borilgan
islohotlar**
- 3. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi O'zbekiston
taraqqiyotining muhim omili**

► Yurtimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning strategik maqsadlar mohiyati
jamoatchilikka ochib berildi:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, milliy boylikning ortishini, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;
2. Ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, insonnning mulkdan mahrum bo'lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash.
3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish;
4. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqr strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish.

Mulkni xususiy lashtirish va ko‘p ukladli iqtisodni shakllantirish

O‘zbekistonda o‘ziga xos yo‘l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishdan maqsad:

- 1. Davlat monopoliyasini tugatib, ma’muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish;**

- 2. Xususiy mulkdorlikning keng qatlamini shakllantirish. Uchinchidan esa xorijiy sarmoyadorlarga keng yo‘l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birgalikda aholining turmush tarzini yuksaltirishdan iborat edi**

- ▶ Xususiy lashtirishning birinchi bosqichi (1992-1993 yillar) – asosan “kichik xususiy lashtirish” amalga oshirildi.
- ▶ Ikkinchi bosqichda xususiy lashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodiyot tarkibiy sturukturasini tubdan o’zgartirish chora-tadbirlari amalga oshirildi.

- ▶ Istiqlolga erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995 yilda neft mustaqilligiga erishdi.
- ▶ 1991-2000 yillarda 83,5 mingdan ortiq davlat mulki ob'ektlari xususiylashtirildi.
- ▶ 2001-2010 yillar mobaynida 8919 ta davlat tasarrufidagi korxona va ob'ekt xususiylashtirilib, ulardan tushgan pul mablag'lari hajmi 630 milliard so'mni tashkil etdi.

